

IJTIMOY ADOLAT PRINSIPINI TA'MINLASH: KONSTITUSIYAVIY-HUQUQIY TAHLIL

Qahramonova Sevinch Farhodovna

Toshkent Davlat yuridik universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ijtimoiy adolat prinsipi ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ijtimoiy adolatning nazariy konseptual asoslari, uning konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlari va zamonaviy demokratik jamiyatda amalga oshirilish yo'llari o'rganildi. Maqolada ijtimoiy adolat prinsipi ta'minlashda davlatning roli, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlanishining konstitutsiyaviy asoslari hamda ijtimoiy himoya tizimining huquqiy mexanizmlari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, ijtimoiy adolat prinsipi konstitutsiyaviy huquqning asosiy tamoyillaridan biri sifatida jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy adolat, konstitutsiyaviy huquq, huquqiy davlat, fuqarolar huquqlari, ijtimoiy himoya, adolatli taqsimlash, ijtimoiy tenglik, demokratik jamiyat, konstitutsiyaviy tamoyillar.*

ABSTRACT

This article analyzes the constitutional and legal foundations of ensuring the principle of social justice. During the study, the theoretical conceptual foundations of social justice, its constitutional and legal mechanisms, and ways of implementation in modern democratic society were studied. The article analyzes the role of the state in ensuring the principle of social justice, the constitutional foundations of guaranteeing citizens' rights and freedoms, and the legal mechanisms of the social protection system. The research results show that the principle of social justice, as one of the fundamental principles of constitutional law, is of great importance for the sustainable development of society.

Keywords: *social justice, constitutional law, rule of law, citizens' rights, social protection, fair distribution, social equality, democratic society, constitutional principles.*

KIRISH

Ijtimoiy adolat prinsipi zamonaviy demokratik jamiyatlarning eng asosiy qadriyatlaridan va zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy tizimning fundamental tamoyillaridan hisoblanadi. Bu prinsip faqatgina nazariy-falsafiy kategoriya sifatida emas, balki o'z navbatida amaliy jihatdan jamiyat va davlat hayotining deyarli barcha

sohalarida amalga oshirilishi zarur bo'lgan muhim huquqiy imperativ vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy adolat muammosi qadimdan beri insoniyat tafakkurining eng markazida turgan, dolzarb masalalardan biri hisoblanib kelgan va turli tarixiy davrlarda ham turlicha tarzda talqin etilgan. Zamonaviy sharoitda esa ijtimoiy adolat masalasi yanada dolzarb masalaga aylanib, globallashuv jarayonlari, iqtisodiy tengsizliklarning kuchayishi va ijtimoiy ziddiyatlarning o'sishining fonida va shu kabi bir qator faktorlar tufayli ijtimoiy adolat ta'minlashning yangi mexanizmlari va yo'llarini izlashni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ijtimoiy adolat prinsipi ta'minlashning mustahkam huquqiy asosini yaratgan. Konstitutsiyaning 1-moddasida belgilanganidek, O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.¹ Demak bundan kelib chiqadiki, ijtimoiylik konstitutsiyamizning eng asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi va yurtimizda ijtimoiy adolat prinsipini takomillashtirish bugungi kun tartibidagi eng asosiy masalalardan biridir. Konstitutsiyamizning birinchi moddasidanoq bu prinsipning ta'kidlab o'tilishi, yurtimizda ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan islohotlarning naqadar jadal ravishda rivojlanayotganligining yorqin misolidir. Ijtimoiy adolat konsepsiyasi ko'p qirrali konsepsiya bo'lib, u o'zida iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy kabi bir qator muhim aspektlarni umumlashtirgan. Bu printsip jamiyatdagi resurslarning adolatli taqsimlanishi, imkoniyatlarning tengligi, huquqlar va majburiyatlarning muvozanatlashtirilishi hamda har bir shaxsning insan qadr-qimmatiga ega ekanligini e'tirof etishni nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ijtimoiy adolat masalasi jahon ilmiy adabiyotida keng yoritilgan. John Rawls o'zining "Adolat nazariyasi" asarida ijtimoiy adolatning ikkita asosiy prinsipi haqida ta'limot ishlab chiqdi: birinchisi, har bir shaxs eng keng ko'lamli asosiy erkinliklarga ega bo'lishi, ikkinchisi esa ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar jamiyatning eng kam ta'minlangan a'zolarining manfaatini ko'zatish sharti bilan tashkil etilishi kerak.² Chindan ham bugungi kundagi ko'plab rivojlangan davlatlar aynan John Rawlsning prinsiplariga asoslangan holda o'zlarining ijtimoiy davlatlarini quradilar. Bunga yaqqol misol sifatida Germaniya davlatini olish mumkin, chunki aynan ushbu davlatda ijtimoiy hayotda uchraydigan va vujudga keladigan tengsizliklar, aynan eng

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — "O'zbekiston", 2023.

² Rawls J. A Theory of Justice. Revised Edition. — Cambridge: Harvard University Press, 2011. — 538 p.

kam ta'minlangan qatlamlarning manfaatlariga asoslangan holda amalga oshiriladi va jamiyatdagi katta tengsizliklar shu orqali bartaraf etiladi.

Amartya Sen o'zining "G'oyalar va adolat" asarida ijtimoiy adolatni amalga oshirishda imkoniyatlar yondashuvining ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikricha, adolat nafaqat resurslarning teng taqsimlanishida, balki har bir insonning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun haqiqiy erkinlikka ega bo'lishida namoyon bo'ladi.³ Odatda, adolat deganda ko'pchilik resurslar yoki boyliklarning teng taqsimlanishini tushunadi. Ya'ni, hamma bir xil miqdorda moddiy ne'matlarga ega bo'lishi kerak, degan g'oya. Biroq bu yondashuv yuzaki bo'lishi mumkin, chunki har bir insonning ehtiyoji, qobiliyati va hayotiy sharoiti turlicha. Yuqoridagi fikrda aytilganidek, haqiqiy adolat bu — har bir insonning o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida quyidagi metodlar qo'llanildi: qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, tarixiy-huquqiy tahlil. Konstitutsiyaviy-huquqiy hujjatlarning mazmuni tahlil qilindi va xalqaro tajriba o'rganildi.

NATIJALAR

Ijtimoiy adolat prinsipi konstitutsiyaviy huquq nazariyasida bir necha fundamental tamoyillar bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Birinchidan, bu prinsip inson huquqlari va asosiy erkinliklari doktrinasini bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy adolat prinsipi hukumat hokimiyatlari bo'linishi doktrinasini bilan chambarchas bog'liq. Monteskye tomonidan ishlab chiqilgan ushbu muhim tamoyil ijtimoiy adolat ta'minlash jarayonida turli davlat organlari o'rtasidagi vazifalar taqsimoti va nazorat tizimini yarattirib berish funksiyasini bajaradi.

Uchinchidan, konstitutsiyaviy huquqda ijtimoiy adolat federal va unitar davlatlar tuzilishi kontekstida turlicha namoyon bo'ladi. Federal tizimlarda mahalliy va markaziy hokimiyat o'rtasidagi vakolat taqsimoti ijtimoiy adolat ta'minlashning samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, ijtimoiy adolat konstitutsiyaviy nazorat instituti orqali amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy sudlar va maxsus organlar qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish orqali ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishiga yo'l qo'ymaydi.

Ijtimoiy adolatni ta'minlashning konstitutsiyaviy mexanizmlari tahlili quyidagi natijalarni berdi. Birinchi navbatda, O'zbekiston Konstitutsiyasi ijtimoiy davlat

³ Sen A. The Idea of Justice. – London: Allen Lane, 2014. – 467 p.

konseptsiyasini mustahkamlagan. Konstitutsiyaning 14-moddasiga binoan, davlat o'z faoliyatini inson farovonligi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

Ijtimoiy huquqlar nazariyasi - konstitutsiyaviy huquqda ijtimoiy huquqlar birinchi va ikkinchi avlod fuqarolik huquqlaridan farqli o'laroq, uchinchi avlod huquqlari sifatida qaraladi. T.H. Marshall tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy fuqarolik nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy huquqlar fuqarolik va siyosiy huquqlarning tabiiy davomi hisoblanadi.

Proporsionallik prinsipi - ijtimoiy adolat ta'minlash uchun konstitutsiyaviy huquqning eng muhim va ajralmas tamoyillaridan biri bu proporsionallik prinsipidir. Bu prinsip bevosita Germaniya konstitutsiyaviy huquqi amaliyotidan kelib chiqqan bo'lib, davlat chora-tadbirlarining maqsad va vositalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni nazarda tutadi. Robert Alexy tomonidan ishlab chiqilgan proporsionallik nazariyasiga ko'ra ijtimoiy adolat chora-tadbirlarining zaruriylik, maqsadga muvofiqlik va to'g'ri proporsiya tamoyillari baholanadi. Ijtimoiy adolat prinsipi nazariy jihatdan bir necha yondashuvlar asosida talqin etiladi. Libertarian yondashuv bo'yicha, ijtimoiy adolat asosan individual erkinlik va mulkchilik huquqlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Konstitutsiyada ijtimoiy adolat ta'minlashning institusional mexanizmlari belgilangan. Bular qatoriga Oliy Majlis, Prezident instituti, sud tizimi, Insan huquqlari bo'yicha Ombudsman instituti kiradi.

Ijtimoiy adolat nazariyasidagi zamonaviy tendensiyalar - XXI asrda ijtimoiy adolat nazariyasi yangi yo'nalishlar bilan boyib bormoqda. Ekologik adolat nazariyasi atrof-muhit va ijtimoiy adolat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Raqamli adolat konseptsiyasi axborot texnologiyalari rivojlanishi sharoitida ijtimoiy adolat ta'minlashning yangi usullarini ishlab chiqmoqda.

MUHOKAMA

Konstitutsiyaviy adolat va ijtimoiy adolat kabi tushunchalarning o'rtasida dialektik bog'liqlik mavjuddir. Bir tomondan, konstitutsiyaviy hujjatlar ijtimoiy adolat uchun muhim bo'lgan huquqiy asosni yaratadi, boshqa tomondan esa, ijtimoiy adolat talablari konstitutsiyaviy o'zgarishlarni taqozo etadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra esa, ijtimoiy adolat prinsipini ta'minlash jarayonida bir qancha muammolar ham mavjud bo'lib, ularning hal etilishi zamonaviy O'zbekistonning muhim vazifalari qatoriga kiradi.

Ijtimoiy adolat ta'minlashning epistemologik muammolari

Ijtimoiy adolat ta'minlash jarayonida epistemologik (bilish nazariyasi) muammolar guruhi alohida o'rin egallaydi. "Qanday qilib biz adolatli ekanligini bilamiz?" mazmunidagi savollarga javob berish uchun ijtimoiy adolat ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va baholash metodologiyasini taqozo etadi. Amartya Sen tomonidan taklif etilgan "qobiliyatlar yondashuvi" (capabilities approach) esa ushbu katta masalaga eng yangicha yechim taklif etadi. Birinchi muammo ijtimoiy adolat tushunchasining turli talqinlari bilan bog'liq. Ba'zi hollarda ijtimoiy adolat mutlaq tenglik bilan aralashtiriladi, bu esa noto'g'ri yondashuvdir. Ijtimoiy adolat, birinchi navbatda, imkoniyatlarning tengligi va har bir insonning o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun adolatli sharoitlar yaratilishini nazarda tutadi.⁴ Ijtimoiy adolat ko'p hollarda noto'g'ri talqin qilinadi, xususan uni mutlaq tenglik bilan aralashtirish holatlari uchraydi. Bunday qarashga ko'ra, jamiyatdagi barcha odamlar moddiy ne'matlar, resurslar yoki imkoniyatlar nuqtai nazaridan bir xil holatda bo'lishi lozimdek tushuniladi. Biroq bu yondashuv adolat prinsiplariga zid bo'lib, insonlar orasidagi tabiiy farqlarni, masalan, iqtidor, mehnatsevarlik, intilish darajasi yoki ehtiyojlardagi tafovutlarni inkor etadi.

Aslida, ijtimoiy adolat deganda, jamiyat a'zolariga teng natijalar emas, balki **teng imkoniyatlar** yaratib berilishi tushuniladi. Bu yondashuv har bir insonning o'z qobiliyat va salohiyatini amalga oshirishi uchun adolatli shart-sharoitlar yaratilishini taqozo etadi. Shunday sharoitda jamiyatda har kim o'z ijtimoiy mavqeini mehnati, malakasi va irodasiga qarab shakllantirishi mumkin bo'ladi.

Teng imkoniyatlar g'oyasi, ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va sud-huquq tizimi kabi asosiy sohalarida muhim ahamiyatga ega. Agar jamiyatda ayrim guruhlar yoki shaxslar bu sohalarida tizimli tarzda cheklovlarga duch kelayotgan bo'lsa, bu holat ijtimoiy adolatning buzilishiga olib keladi. Masalan, qishloq joylardagi bolalar bilan shahardagi bolalarning ta'limga kirish imkoniyati bir xil bo'lmasa, bu natijada hayotiy muvaffaqiyatda ham jiddiy farqlarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, teng imkoniyatlar nafaqat boshlang'ich nuqtani tenglashtirishni, balki resurslarga adolatli kirishni ham nazarda tutadi.

Ijtimoiy adolat konseptsiyasi madaniy relativizm muammosi bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan muhim tushuncha hisoblanadi. Turli hil madaniyatlarda ijtimoiy adolat tushunchasi har xil tarzda va shaklda talqin etiladi. Garchi, barcha davlatlar uchun universal inson huquqlari mavjud bo'lsa ham, ularning amaliy amalga oshirilishi mahalliy madaniy kontekstni hisobga olishni talab etadi. Bu masala ayniqsa, ko'p millatli va ko'p madaniyatli jamiyatlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

⁴ Sandel M.J. Justice: What's the Right Thing to Do? – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2012. – 308 p.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy adolat ta'minlashning eng samarali modeli aralash iqtisodiyot hisoblanadi, bu yerda davlat va bozor mexanizmlari bir-birini to'ldiradi. Skandinaviya mamlakatlari (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya) bunun yorqin namunasidir.

XULOSA

Ijtimoiy adolat prinsipi ta'minlash zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy tizimning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

Birinchidan, ijtimoiy adolat prinsipi O'zbekiston Konstitutsiyasining fundamental tamoyillaridan biri sifatida mustahkamlangan va uning amalga oshirilishi uchun keng ko'lamli huquqiy asos yaratilgan.

Ikkinchidan, ijtimoiy adolat ta'minlash ko'p qirrali jarayon bo'lib, u huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy mexanizmlarning samarali hamkorligini talab etadi.

Uchinchidan, ijtimoiy adolat prinsipi ta'minlashda davlatning roli hal etuvchi ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat tegishli huquqiy bazani yaratish, balki uning amaliy amalga oshirilishini ta'minlash vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy adolat ta'minlashning istiqbollari quyidagicha belgilanishi mumkin: birinchidan, huquqiy mexanizmlarning yanada takomillashtirilishi; ikkinchidan, ijtimoiy himoya tizimining kengaytirilishi; uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish; to'rtinchidan, ijtimoiy adolat ko'rsatkichlarini baholash tizimini yaratish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – "O'zbekiston", 2023.
2. Rawls J. A Theory of Justice. Revised Edition. – Cambridge: Harvard University Press, 2011. – 538 p.
3. Sen A. The Idea of Justice. – London: Allen Lane, 2014. – 467 p.
4. Sandel M.J. Justice: What's the Right Thing to Do? – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2012. – 308 p.